



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

*Ikromjon Xolmirzayev*

*Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti*

*“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida assistenti*

*Annotatsiya.* Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari hamda mamlakatimizda ushbu tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, kichik korxonalar, daromad, talab, taklif.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur shartsharoitlarni yaratish jamiyatda samarali bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkdorlar sinfini qo'llab-quvvatlash va fuqarolik jamiyatining yangi demokratik institutlarini barpo etishning muhim shartidir. Bu muhim vazifa bo'lib, uni hal etishning butun murakkabligi har bir davlatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga noan'anaviy, nostandart yondashuvni taqozo etadi. Kichik biznes faoliyati bilan shu g'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mavjud tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega. Respublikamizda kichik korxonalar soni va ular ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik korxonalar O'zbekiston Respublikasining O'RQ-821-son «Mulkiy to'g'risida»,



O'RQ-328-son «Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi kabi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda. Kichik korxonalar fan-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi sohaslarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rmini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish bilan ish jarayonini ta'minlovchi tizimning asosiy bog'lovchilik sifatini namoyon etmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bolgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik resurslardan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatning muhim turi hisoblanadi. Bu jarayon quyidagicha izohlanadi:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik deganda shaxslarning tavakkalchilikka oid javobgarlik bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati tushuniladi;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik resurslardan yanada oqilona foydalanishga yo'naltiriladi, bu esa cheklangan va innovatsion yondashuvni talab qiladi;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik qo'shimcha daromad va foyda keltirsagina oqlanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni barpo etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati katta bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish turli subyektlar yordamida amalga oshiriladi. Subyektlarni tashkil etish aholining talab va taklifiga asosan, har xil tadbirkorlik shakllarida amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatini yuritishning muhim 4 asosi mavjud:

1. Tadbirkorning ijtimoiy ishlab chiqarish asosi - insoniyatning mavjud bo'lishi uchun eng oddiy va eng asosiy hayotiy ne'matlar yaratib berishdir.



2. Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy asoslari - korxonani tashkil etish, korxonaning tashkiliy tuzilmasi, bo'lim, bo'g'in, guruhlamining tizimli bog'lanishi, faoliyatni bir ishlab chiqarish obyekti sifatida tuzilishidir.

3. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari - tadbirkor o'z faoliyatini yuritish, korxonalar ochish, mahsulotni yetishtirib iste'molchiga yetkazib berish jarayonida qo'llaniladigan va qonunchilik idoralari tomonidan ishlab chiqilgan qonuniy hujjatlardan foydalanish tushuniladi.

4. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy asoslariga - tadbirkor tomonidan yaratiladigan moddiy boyliklarni ishlab chiqarish uchun sarf qilinadigan moddiy, moliyaviy, mehnat va ijtimoiy resurslardan samarali foydalanish tushuniladi.

Yangi O'zbekistonda jadallik bilan o'sayotgan iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'layotgan, shuningdek, ishlab



chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o'tkazish taqiqlandi.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes subyektlarini, ayniqsa, ularning yuqori texnologik uskunalarni xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizmi takomillashtirildi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Mamlakatimizda aholi bandligi muammosini hal etish, bozor to'kinligini ta'minlash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Barcha sohalar qatori ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, maqsadli dasturlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.

2. Бахром.Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. –2022. –Т. 12. –№. 2. –С. 139-142.

3. Baltaboyeva G.R, Ergashev E.I va boshqalar. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. – T:"Iqtisod –moliya" nashriyoti,2015-yil6.www.ziyonet.uz,  
<http://blokchain.community>